

UDK: 635,655:632.51

G‘O‘ZA TUNLAMIGA QARSHI QO‘LLANILGAN “ANTISOVKA 50% SUS.K.” PREPARATING BIOLOGIK SAMARADORLIGI NATIJALARI

M.K.Qosimova O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon filiali.

Abstract. *In this article, the meadow of the Andijan region Antisovka 50% sus against ACORN tuna in the AND-35 variety of acorns in the conditions of oxen soils.k. data on the use of the preparation in consumption norms per 0.08-0.1 l/ha were cited.*

Key words: *soils, grassland soils, cotton, nightshade, efficiency, bollworm, control, insecticide.*

Kirish. O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiiy iqlim sharoitlari shuningdek, o‘simliklarni o‘rish davridagi havo haroratining qulay bo‘lishi ko‘plab zarrali xasharotlarni rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jalik ekinlaridan minglab hasharotlar, kanalar, kasalliklar rivojlanib, hosil miqdoriga hamda sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarida zararkunandalarning tarqalishi, rivojlanishi hamda zararlilik darajasi tuproq sharoitlari va ularni etishtirish agrotexnikasi hamda etishtirilayotgan ekinlarining navlariga ham bog‘liqdir. Shu sababli ham ishlab chiqarishda zararkunandalarga chidamli serhosil ekin navlarini yaratishdan iborat. Qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalarga qarshi kurashda muntazam ravishda to‘g‘ri o‘tkazilgan har bir nazorat ishlari o‘ta muhimdir. Zero bunday nazorat zararkunandalar paydo bo‘lishini va tarqalishini bashorat qilish omilidir. Bunday to‘g‘ri va oqilona qilingan bashorat natijalarigina zararli organizmlarga qarshi profilaktik va izchil kurash tizimlarini o‘z vaqtida mukammal o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Natijada dala maydonlarida o‘z vaqtida, harajatlarni kamaytirgan xolda zararli organizmlar ta‘siridan saqlab qolinadi. Shunengdek, bunda shu soha mutaxasislarning yuqori malakali bo‘lishlari ham o‘ta muhimdir [1-3].

Tadqiqot uslublari. Tajriba materiallariga g‘o‘za tunlamining (*Helicoverpa armigera*) avlodlari ketma-ket zarari, zararlilik iqtisodiy chegarasini hisobga olgan holda Antisovka 50% sus.k. qo‘llash kiradi. **G‘o‘za tunlami** (*Helicoverpa (Heliiothis) armigera* Hb.). er yuzining

barcha qismlarida mo'tadil va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan. O'rta Osiyoda g'o'za tunlami hamma joyda uchraydi [2-4].

Insektitsidning samaradorligini o'rganish uchun dala tajribasida g'o'zada g'o'za tunlamiga qarshi Antisovka 50% sus.k. 0,08-0,1 l/ga, andoza sifatida Koragen aziya 20% sus.k. 0,15 l/ga sarf me'yorida sinalladi.

Tajribalar g'o'zaning AND-35 navida tajribalar joylashtirilib tajribalar 4 ta variant 4 ta qaytariqda olib borildi, 1-jadvalda keltirilgan muddat va miqdorlarda sinaldi. Tajriba maydoni 0,5 gektarni tashkil etdi.

1-jadval

Tajriba tizimi

№	Variantlar	Sarf me'yori l/ga
1.	Antisovka 50% sus.k.	0,08
2.	Antisovka 50% sus.k.	0,1
3.	Koragen aziya 20% sus.k. (andoza)	0,15
4.	nazorat	Ishlov berilmagan

Yuqorida qayd etilgandek, preparatlarning biologik samaradorligi preparatning ta'siri ostida kamaygan zararkunanda soni yoki zararlangan o'simlikning o'zi hamda ayrim o'rganlari (ildizi, mevasi, bargi, poyasi va xakozo) bilan belgilanadi.

Biologik samaradorlikni ifodalash uchun turli xil formulalar mavjud. Ular ichida keng tarqalgani zararkunandaning nazorat uchastkasida tabiiy rivojlanishi nazarda tutuvchi Abbot (1925) formulasidir [5,131-b]

Tadqiqot natijalari. Tajriba tartibi bo'yicha ("Swissagro" MChJ-QK, O'zbekiston) yangi Antisovka 50% sus.k. insektitsidlarning me'yorlarini G'o'za tunlamiga, ta'siri haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Kuzatuv natijalari tajriba dalasidagi insektitsidlar bilan ishlov berilgan tajriba maydonlarida 3-7-14- kunlik o'tkazilgan kuzatuvlarda aniqlanishicha -nazorat variantga nisbatan Antisovka 50% sus.k. insektitsidini 0,08-0,1 lga sarf me'yorlarda qo'llanilgan variantlardagi g'o'zada **ko'sak qurtiga** qarshi Antisovka 50% sus.k. 0,08 l/ga sarf me'yorda qo'llangan variantimizda nazoratga nisbatan 88,5-85,8-80,0%, biologik samaradorlikka erishildi, Antisovka 50% sus.k. 0,1 l/ga sarf me'yorda qo'llangan variantimizda nazoratga nisbatan 91,9-89,0-80,2 %, biologik samaradorlikka erishildi.

Koragen 20% aziya sus.k. (andoza) insektitsidini 0,15 kg/ga sarf me'yorlarda qo'llanilgan variantlardagi g'o'zada qurtiga qarshi nazoratga nisbatan 89,9-88,5-80,0 % biologik samaradorlikka erishildi (2-jadval).

2-jadval

G'o'zada Antisovka 50% sus.k. preparating ko'sak qurtiga qarshi biologik samaradorligi

(Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti Axborot maslahat markazi dala tajriba maydoni, 13.07.2023)

№	Varianlar	Sarf me'yor i kg/ga	100 ta o'simlikdagi ko'sak qurtig o'rtacha miqdori, dona Preparat sepihdan oldin (tuxum, yoshlari)				100 ta o'simlikdagi ko'sak qurtig o'rtacha miqdori, dona (yoshlari) ishlov berilgandan keyin.								
							3- kun			7 - kun			14- kun		
			tuxumi	1-3	4-6	jami	1-3	4-6	jami	1-3	4-6	jami	1-3	4-6	jami
1	Antisovka 50% sus.k.	0,08	11,5	10,7	8,0	9,35	0,7	1,5	2,2	1,7	2,5	3,2	2,7	3,2	5,9
2	Antisovka 50% sus.k.	0,1	9,2	12,5	7	9,8	0,7	1	1,7	1	1,7	2,7	1,7	3,5	5,2
3	Koragen aziya 20% sus.k. (andoza)	0,15	9	13,7	7,5	10,6	0,7	1,5	2,2	1	2	3	2	3,7	5,7
4	Nazorat	-	9	11,5	7	9,25	12,7	9	21,7	15	10,7	25,7	16	11,7	27,7
Biologik samaradorlik (%)															
1	Antisovka 50% sus.k.	0,08	11,5	10,7	8	9,35	93,5	83,6	88,5	88,8	82,8	85,8	84,4	75,7	80,0
2	Antisovka 50% sus.k.	0,1	9,2	12,5	7	9,8	94,9	88,9	91,9	93,9	84,1	89,0	90,2	70,1	80,2
3	Koragen aziya 20% sus.k. (andoza)	0,15	9	13,7	7,5	10,6	95,4	84,4	89,9	94,4	82,6	88,5	89,5	70,5	80,0
4	Nazorat	-	9	11,5	7	9,25	0	0	0	0	0	0	0	0	0

Xulosa. Olib borilgan tajriba natijalaridan kelib chiqib, ishlab chiqarishga quyidagi xulosalarni berish mumkin: Andijon viloyating o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida ("Swissagro" MChJ-QK, O'zbekiston) yangi Antisovka 50% sus.k. insektitsidlarning g'o'za maydonlarida kuchli zarar keltiradigan G'o'za tunlamiga qarshi qo'llanganda Antisovka 50% sus.k. preparating 0,08-0,1 l/ga sarf me'yorlarda qo'llangan variantimizda nazoratga nisbatan 3 kunda ko'sak qurtiga qarshi 88,5-91,9%, biologik samaradorlikka erishildi. Tajriba natijalari asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki Antisovka 50% sus.k. preparatini 0,1 l/ga sarf me'yorda qo'llanilgan variantimizda g'o'za maydonlaridagi ko'sak qurtiga qarshi yuqori biologik hamda iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимухамедов С., Хўжаев Ш.Т. Ғўза зараркундалари ва уларга қарши кураш. - Тошкент «Мехнат» 1978. - 193-б.

2. Доспехов Б.А. Методика Полевого опыта. - Москва Агропромиздат 1985. – С.223-256.
3. Махсумов А.Н. Нарзикулов М.Н. Интегрированная защита хлопчатника от вредителей. - Душанбе: “Дониш”, 1981. – С. 245.
4. Хожаев Ш.Т. Умумий қишлоқ хўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган ҳимоя қилиш тизимининг асослари. - Тошкент. ООО “Yangi nashr Nashriyoti”-2019. – Б.98.
5. Хожаев Ш.Т. Агротоксикология асослари ҳамда тадқиқот ўтказиш қоидалари. - Тошкент: 2018, - Б.106-131.